

"BRB TURBO" Yutuqli aksiya shartlari

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1 Ushbu aksiya shartlari ommaviy oferta hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan bo'lib, "BRB TURBO" aksiya (keyingi o'rinlarda — Aksiya)sini o'tkazish shartlari, ishtirokchilarni aniqlash tartibi, Tashkilotchi va Aksiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlarni belgilaydi.
- 1.2 Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o'yin hamda Aksiyada ishtirok etish majburiy hisoblanmaydi.
- 1.3 Aksiya bank kartalari sonini ko'paytirish, UZCARD to'lov tizimi (keyingi o'rinlarda – UZCARD TT) bank kartalari foydalanuvchilari faolligini oshirish maqsadida o'tkaziladi.
- 1.4 Tashkilotchining aloqa ma'lumotlari:
Telefon raqami: +998 78 150 – 00-55;
Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, A.Navoi ko'chasi, 18A-uy;
- 1.5 Aksiya Tashkilotchi tomonidan "Biznesni rivojlantirish banki" ATBda 25.03.2026-31.05.2026 yilgacha orqaliqda Uzcard(virtual bank kartalaridan hisobga olinmaydi) bank kartalari emissiya qilgan mijozlar o'rtasida o'tkaziladi.
- 1.6 Akvit Uzcard bank kartalari – aksiya amal qilish muddatida davrida emissiya qilingan hamda kamida 5 000 so'mlik to'lov amalga oshirgan Uzcard(virtual bank kartalaridan hisobga olinmaydi) bank kartalari.
- 1.7 Aksiya bo'yicha to'lovlar (yutuqlar) ishtirokchiga topshirilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) uchun to'lov yoki moddiy yordam hisoblanmaydi.
- 1.8 Aksiya 2026-yil 25-martdan 2026-yil 31-maygacha (keyingi o'rinlarda – Aksiya davri) o'tkaziladi.
- 1.9 Aksiya 2 (ikki) turda o'tkaziladi:
1-tur – 2026-yil 25-martidan 2026-yil 30-aprelgacha;
2-tur – 2026-yil 1-maydan 2026-yil 31-mayigacha.
- 1.10 Aksiya davri tashkilotchi tashabbusi bilan uzaytirilishi mumkin. Aksiya davri uzaytirilganda, ishtirokchilar tashkilotchi tomonidan qo'shimcha ravishda xabardor qilinadi.
- 1.11 Aksiyada bank xodimlarining ishtiroki inobatga olinmaydi.

2. AKSIYA SOVRIN JAMG'ARMASI

- 2.1 Aksiya sovrin jamg'armasi 63 636 363,64 so'm miqdorida shakllantiriladi va quyidagicha bo'linadi :

1-tur yakuni bo'yicha 20 ta ishtirokchiga			
	AI 95 markali benzin(bir litrda)	AI 95 markali benzinning bozor qiymati	Mijoz bank kartasiga bergan puli
Bir dona mijozga	100 litr	15 909,09	1 590 909,09
20 ta mijozga	2 000 litr	15 909,09	31 818 181,82
Jami	31 818 181,82		
2-tur yakuni bo'yicha 20 ta ishtirokchiga			
Bir dona mijozga	100 litr	15 909,09	1 590 909,09
20 ta mijozga	2 000 litr	15 909,09	31 818 181,82
Jami	31 18 181,82		

- 2.2 Tashkilotchi Aksiya sovrin jamg'armasini o'zgartirish, jumladan, sovrinlar soni, to'plami, turi va boshqa xususiyatlarini o'zgartirish hamda ushbu shartlarga kiritilmagan boshqa Sovrinlarni Aksiyaga qo'shish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 2.3 Sovrin jamg'armasini natura ko'rinishida pul ekvivalenti yoki boshqa natura sovrinlarga almashtirish ishtirokchi/g'olib/sertifikat egasi istagiga ko'ra ko'rib chiqilmaydi va amalga oshirilmaydi.
- 2.4 Agar g'olib sovrinni olishni rad etgan taqdirda sovrin ungan keyingi yaxshi natija qayt etgan mijozga beriladi.

3. AKSIYANI O'TKAZISH TARTIBI

3.1 Aksiya ishtirokchisi maqomini olish shartlari (aksept):

3.1.1 Aksiya mos davrida aktiv Uzcard bank kartalarini emissiya qilgan mijozlar.

3.2 Aktiv emissiya qilingan Uzcard bank kartalari faqat joriy aksiya davri uchun hisobga olinadi.

3.3 G'oliblarni aniqlash tartibi:

3.3.1 Aksiya joriy davrining g'oliblari tasodifiy raqamlar generatori yordamida keyingi oyning 15 sanasiga qadar bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali aniqlanadi.

3.4 Komissiya:

Aksiya sovrinlarini o'ynash tartibi, xolisligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida komissiya a'zolari quyidagi departamentlardan tuziladi:

- Chakana biznes departamenti
- Marketing departamenti

3.5 G'oliblar Aksiya mos davrining keyingi oyi 15-sanasiga qadar aniqlanadi va e'lon qilinadi.

4. AKSIYA SOVRINLARINI TOPSHIRISH SHARTLARI VA TARTIBI

4.1 Aksiya G'oliblarga pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ushlanmalar ushlanib qolgan holda tanlov g'oliblarining "Biznesni rivojlantirish banki" ATB bank kartalariga o'tkazib beriladi.

- 4.2 Pul mablag'ini bank kartasiga tushganligi to'g'risidagi karta aylanmasi ma'lumoti topshirish – qabul qilish dalolatnomasi o'rnida qabul qilinadi.

5. AKSIYANING QO'SHIMCHA SHARTLARI

- 5.1 Firibgarlik harakatlari, til biriktirish, ma'lumotlarni soxtalashtirish, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kelishuvlar aniqlanganda, xoh Tashkilotchi yoki uning vakillari bilan, xoh sovrinni olishda to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita manfaatdor boshqa shaxslar bilan, xoh bitta ishtirokchi, xoh ishtirokchilar guruhi tomonidan birga ishtirok etish holatlari aniqlansa, Tashkilotchi bir tomonlama tarzda yutuqli o'yin natijalarini bekor qilish va Aksiya g'olibini qayta aniqlash huquqiga ega.
- 5.2 Aksiya Tashkilotchisi istalgan vaqtda Aksiya shartlarini o'zgartirish huquqiga ega.
- 5.3 Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisining har qanday xatolari natijasida yuzaga kelgan har qanday oqibatlar, shu jumladan (boshqa holatlardan tashqari) yetkazilgan zararlar uchun javobgar emas.
- 5.4 Tashkilotchi har qanday vaqtda Aksiyadagi firibgarlikning oldini olish uchun qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ishtirokchining har qanday vijdotsiz harakati aniqlansa, natijalari bekor qilinadi va ishtirokchi Aksiyadan chetlashtiriladi.
- 5.5 Tashkilotchi o'zida mavjud texnik imkoniyatlar, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu shartlardagi talablarni inobatga olgan holda, Aksiyada ishtirok etish vijdonliligini mustaqil ravishda baholaydi.
- 5.6 Tashkilotchi o'zida mavjud texnik imkoniyatlar, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu shartlardagi talablarni inobatga olgan holda, Aksiyada ishtirok etish vijdonliligini mustaqil ravishda baholaydi.
- 5.7 Ushbu shartlarga kiritilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.